



## **HUDUDLARNI IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA XUDUD SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

**Kamilov Mirzoxid Zafarjanovich**

BTOM tiglioichisi

Hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, istiqbolli yo‘nalishlarni ishlab chiqish va asoslash, aholi turmush farovonligi, o‘rtacha ish haqi va daromadlar darajasini oshirish hamda hududiy va tarmoq dasturlarini ishlab chiqishda tuman (shahar) lardagi mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatning o‘rni muhim. Ayniqsa, bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblangan hudud iqtisodiyotini sanoatlashtirishda tabiiy-iqtisodiy salohiyatning ajralmas qismi bo‘lgan mineral xomashyo resurslari muhim ahamiyat kasb etadi va bu amalda ham o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Salohiyat tushunchasi lotincha “potentia” so‘zidan olingan bo‘lib, kuch, imkoniyat degan ma‘noni bildiradi.

Hudud salohiyati u yerda mavjud bo‘lgan barcha majmuaviy resurslardan samarali foydalanish orqali aholi ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan ne‘matlarni ishlab chiqarish bilan belgilanadi. Hudud salohiyati tushunchasi shuning bilan birga, hududning tarkibiy elementlarini yuzaga keltiruvchi salohiyatlar tizimidan iborat.

Tuman (shahar) salohiyatiga turli ta‘riflar mavjud bo‘lib, shulardan ayrimlarini keltirib o‘tamiz.

Iqtisodiy salohiyat - hududning resurslari, manbalari, mablag‘lari va zaxiralari, shuningdek, aniq maqsadlarga erishish uchun ularni hozirgi yoki kelgusi davrda iqtisodiy jarayonga jalb qilish mexanizmlaridir (usullari va shakllari)

Geosiyosiy salohiyat - geografik joylashuv, ijtimoiy-siyosiy sharoitlar va rivojlanish omillari bilan belgilanadi.

Tabiiy salohiyat - (mineral, suv, ep, hayvonot, o‘simlik va boshqa resurslar) insonni o‘rab turgan va ularning hayotiy faoliyatini ta‘minlash uchun foydalaniladigan tabiiy sharoitlar. Ular jamiyatning ehtiyojlarini qondirish uchun moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishga bevosita jalb qilingan tabiat kuchlaridir. Bozor sharoitida ular qiymat shakliga ega bo‘lib, hududlar



byudjetiga tushumlarni ta'minlaydi, hudud aholisi farovonligini oshirishning moddiy asosini tashkil etadi.

Ishlab chiqarish salohiyati - hududning moddiy-texnik bazasi, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalaridagi kapitallari (mablag'lar)dir.

Demografik (mehnat) salohiyat - aholi soni, uning jinsiy va yosh jihatidan tuzilishi, aholining faol qismini, mehnat resurslarini ishlab chiqarishga jalb qilish imkoniyati bilan tavsiflanadi.

Ijtimoiy salohiyat - sog'liqni saqlash, uy-joy kommunal xizmatlari, savdosotiq, umumiy ovqatlanish kabi sohalardagi imkoniyatlar bilan belgilanadi.

Ma'naviy salohiyat - jamiyatning tarixiy tajribasi va an'analari, ilmfan, madaniyat va ta'limning holati bilan belgilanadi.

Boshqaruv salohiyati - kadrlar darajasi, boshqaruv usullari va boshqalarda ifodalanadi.

Moliyaviy salohiyat - hududning moliyaviy resurslari va ularni jalb qilish imkoniyatlaridir.

Hudud salohiyati turlari, ularni hisoblash ko'rsatkichlari bo'yicha turlicha qarashlar shakllangan. Tuman (shahar) salohiyatini turlarga ajratishda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning barcha jabhalarini qamrab olish maqsadga muvofiq. Salohiyat turlari va ko'rsatkichlarini shakllantirishda umumiy ko'rsatkichga chiqish tamoyili acoc qilib olindi.

Tuman (shahar) tabiiy-iqtisodiy salohiyatini quyidagi guruhlarga bo'lish va tahlil qilish mumkin.

1. Iqtisodiy salohiyat.
2. Ijtimoiy salohiyat.
3. Byudjet salohiyati.
4. Tadbirkorlik salohiyati.
5. Investitsion salohiyat.
6. Infratuzilma salohiyati.
7. Mineral xomashyo salotsipti.
8. Ep resurslari.
9. Suv resurslari.



10. Demografik va mehnat salohiyati.
11. Turizm salohiyati.
12. Innovatsion salohiyat.

Bundan tashqari, miqdor jihatdan o‘lchab bo‘lmaydigan, biroq salohiyatga sezilarli darajada ijobiy va salbiy ta‘sir qiladigan geografik joylashuvi, iqlimi kabi omillar ham mavjud.

Hududning geografik joylashuvini baholashda poytaxtga yoki viloyat markaziga yaqinligi, chegara hududda joylashganligi va o‘sha yerda chegara-postlar mavjudligi hamda qo‘shni mamlakat hududidagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muhitning holati va boshqa omillar inobatga olinadi.

Shuningdek, hududning transchegaraviy suv resurslariga bog‘liqlik darajasi ham hudud salohiyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, Sirdaryo va Jizzax viloyatining cho‘l zonasida joylashgan (Oqoltin, Sardoba, Paxtakor va b.) tumanlar salohiyati Qirg‘iziston Respublikasida shakllanadigan suv resurslariga bog‘liq.

Hududda yirik sanoat markazlarining (aglomeratsiya) joylashganligi yoki ularga yaqinligi ham salohiyatnn belgilab beruvchi omillardan hisoblanadi. Masalan, Angren, Bekobod, Olmaliq va Chirchiq, Shirin, Zarafshon shaharlari, Sharg‘un shaharchasi xamda ularga tutash qishloq tumanlari. Bundan tashqari, hudud iqtisodiyotining yillar davomida shakllangan ixtisoslashuvi ham o‘sha hududning salohiyatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar qatoriga kiradi.

Hududning iqtisodiy salohiyati to‘g‘risida olimlarning turli qarashlari mavjud. Masalan, hududning iqtisodiy salohiyati tabiiy resurslar, ishlab chiqarish mablag‘lari, mehnat va ilmiy-texnik salohiyat, hududda shakllangan boyliklar bilan ifodalanadi. Umuman olganda, iqtisodiy salohiyat bu - hududning resurslari, manbalari, mablag‘lari va zaxiralari xamda ularni hozirda yoki kelajakda aniq bir maqsadga erishish uchun amaliyotga joriy qilish mexanizmlaridir.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sharoitida tadbirkorlik innovatsiyalar, yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish manbai sifatida muhim o‘rin tutadi. Tadbirkorlar innovatsiyalarni joriy etib, yangi biznes modellarini ishlab chiqish orqali hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda, bu esa, o‘z navbatida, aholi turmush sifatining yaxshilanishi va hududlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Tadbirkorlik nazariyasi rivojlanishining hozirgi bosqichida biz to‘rtinchi davrga duch keldik, uning markazida tadbirkorning boshqaruv rolini qayta ko‘rib

chiqish turibdi. Bu davr tadbirkorlik masalalari turli ilmiy fanlar prizmasidan o'rganilishi bilan xarakterlanadi, bu esa ushbu sohaning ko'p qirrali xususiyatini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Tadbirkorlik nazariyasi rivojlanishining ushbu bosqichida biz tadbirkorlik faoliyatini tahlil qilishda boshqaruv yondashuviga e'tibor qaratilishini kuzatamiz, bu uning evolyutsiyasining to'rtinchi bosqichining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Hozirgi vaqtda tadbirkorlikni nazariy tahlil qilish o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldiradigan ko'plab fanlarni qamrab oladi.

Ichki tadbirkorlikni joriy etish ishlab chiqarish tizimlarini tadbirkorlik yondashuviga o'tkazish, bo'limlarga innovatsion g'oyalarni amalga oshirishda ko'proq avtonomiyalar berish bilan bog'liq bo'lib, bu hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, tadbirkorlik muvaffaqiyati ko'plab omillar, jumladan bozor dinamikasi va kompaniyadagi ichki o'zgarishlar bilan belgilanadi. Tadbirkorning maqsadi foyda olish va bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlashdan iborat bo'lib, bu samarali boshqaruv amaliyotini talab qiladi. Muvaffaqiyatli biznes uchun bozor talabi va taklifi, xarajatlarni optimallashtirish yo'llarini topish, erkin tadbirkorlik uchun sharoit yaratish va faoliyat natijalari bozorga kirgandan keyingina aniq bo'lishini tushunish kabi jihatlarni hisobga olish muhimdir. Bundan tashqari, kichik biznes tadbirkori noaniq bozor risklariga duch keladi.

Demak, tadbirkorlik – mustaqil tashabbus va foyda olishga intilish asosidagi faoliyat bo'lib, u intellektual faoliyatdan boshlanib, moddiy boyliklar yaratishga olib keladi.

Tadbirkorlik kontseptsiyasining asoschilaridan biri Jozef Shumpeter tadbirkorni innovator va iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchisi sifatida ta'riflaydi. Shumpeterning ta'kidlashicha, tadbirkorlik "ijodiy yo'q qilish" ni o'z ichiga oladi, bu erda eskirgan tarmoqlar va ishlab chiqarish usullari yangi, samaraliroqlari bilan almashtiriladi. Bu jarayon hududlarning jadal rivojlanishiga va ularning o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga moslashishiga xizmat qiladi.

Olimlarning ushbu nazariya va yondashuvlarida tadbirkorlikning hududiy rivojlanishdagi ko'p qirrali roli alohida ta'kidlanadi. Tadbirkorlar nafaqat yangi korxonalar va ish o'rinlarini yaratish, balki mintaqaning barqaror iqtisodiy o'sishi va raqobatbardoshligini oshirishga olib keladigan innovatsion ekotizimning shakllanishiga ham hissa qo'shmoqda.